



NAMANGAN VILOYATI MINGBULOQ TUMANI HOKIMINING QARORI

2024-yil 19-dekabr

733-6-81-Q/24

Mingbuloq tumani hokimligi

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari tashkil etilganligining 33 yilligi hamda Vatan himoyachilari kuni bayramiga tayyorgarlik ko‘rish va uni yuqori o‘tkazish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2024-yil 12-dekabrda F–62-son Farmoyishi, shu haqidagi viloyat hokimining 2024-yil 16-dekabrda 605-6-0-Q/24-sonli qarori ijrosi haqida

O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari tashkil etilganligining 33 yilligi hamda Vatan himoyachilari kunini munosib kutib olish va uni yuqori saviyada nishonlash, xalq va armiya yakdilligini yanada mustahkamlash, yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 12-dekabrda F–62-son Farmoyishini, shu haqidagi viloyat hokimining 2024-yil 16-dekabrda 605-6-0-Q/24-sonli qarorini tumanda ijrosini ta‘minlash maqsadida, O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6 va 21¹-moddalariga muvofiq,

Q A R O R Q I L A M A N:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari tashkil etilganligining 33 yilligi hamda Vatan himoyachilari kuni bayramiga tayyorgarlik ko‘rish va uni yuqori saviyada o‘tkazish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2024-yil 12-dekabrda F–62-son Farmoyishi, shu haqidagi viloyat hokimining 2024-yil 16-dekabrda 605-6-0-Q/24-sonli qarori rahbarlik va amalda bajarish uchun qabul qilinsin.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining mazkur Farmoyishi bilan: O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari tashkil etilganligining 33 yilligi va Vatan himoyachilari kuniga tayyorgarlik ko‘rish hamda uni yuqori saviyada o‘tkazish bo‘yicha respublika ishchi komissiyasi tarkibi 1-ilovaga muvofiq;

O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari tashkil etilganligining 33 yilligini va Vatan himoyachilari kunini nishonlashga tayyorgarlik ko‘rish hamda uni o‘tkazish Dasturi 2-ilovaga asosan tasdiqlanganligi;

mazkur farmoyishning ijrosi bilan bog‘liq harajatlar Qurollik Kuchlar tarkibiga kiruvchi vazirlik va idoralarga ajratilgan Davlat budjeti mablag‘ari doirasida, tegishli Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahri mahalliy budjetlarining qo‘shimcha manbalari, yuridik va jismoniy shaxslarning homiylik xayriyalari hamda qonunchilikda taqiqlanmagan boshqa moliyalashtirish manbalari hisobidan amalga oshirilishi belgilab qo‘yilganligi e‘tiborga olinsin.

3. O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari tashkil topganligining 33 yilligi hamda Vatan himoyachilari kuni bayramiga tayyorgarlik ko‘rish va uni yuqori saviyada o‘tkazish yuzasidan tadbirlar Dasturi (kelgusida Dastur deb ataladi) 1-ilovaga muvofiq;

O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari tashkil topganligining 33 yilligi va Vatan himoyachilari kuni bayramiga bag‘ishlangan tadbirlarni tashkil etish va o‘tkazish bo‘yicha tuman tashkiliy qo‘mitasi tarkibi 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

4. Tuman hokimining o‘rinbosari J.Raximov:

Dasturda belgilab berilgan bayram tadbirlarining **“Yangi O‘zbekiston armiyasi – mamlakat tayanchi, xalqimiz faxri!”** shiori ostida tashkiliy jihatdan yuksak saviyada va ko‘tarinki ruhda amalga oshirilishini;

Tumandagi tegishli idora muassasa va tashkilotlar bilan hamkorlikda O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari tashkil topganligining 33 yilligi va Vatan himoyachilari kuni bayramiga tayyorgarlik ko‘rish va o‘tkazish yuzasidan Dasturni to‘laqonli va sifatli bajarish;

joylarda taniqli olimlar, ijodkor ziyolilar, sportchilar, harbiy xizmatchilar va jamoat tashkilotlari vakillarini jalb etgan holda aholining keng qatlamlari orasida madaniy-ma‘rifiy, harbiy-vatanparvarlik va sport tadbirlari o‘tkazilishini tashkil etish;

o‘tkaziladigan bayram dasturlarini tayyorlashga ommaviy tomoshalar bo‘yicha yuksak mahorat va tajribaga ega bo‘lgan ijodkor ziyolilar, madaniyat va san‘at arboblari, iste‘dodli yosh ijrochilardan iborat ijodiy guruhlarni shartnoma asosida jalb etish choralarini ko‘rish;

bayram tadbirlariga keng aholi qatlamlarini, ayniqsa, yoshlarni jalb qilgan holda uyushqoqlik bilan tayyorgarlik ko‘rish va yuqori saviyada o‘tkazish masalalarida mahalliy davlat hokimiyati organlari, fuqarolik jamiyati institutlari, xo‘jalik yurituvchi subyektlar va ta‘lim muassasalar, tuman Mudofaa bo‘limi va tashkilotlar bilan yaqindan hamkorlik qilish;

harbiy xizmat nufuzini oshirish, harbiy xizmatchilar va ularning oila a‘zolarini har tomonlama qo‘llab-quvvatlash, ijtimoiy himoyasini kuchaytirish hamda harbiy xizmat o‘tash sharoitlarini yaxshilash, qo‘shimcha imtiyoz va kafolatlar joriy etish bo‘yicha qabul qilinayotgan qonunchilik hujjatlarining mazmunini, shuningdek, “Xalq va armiya - bir tanu bir jon!” tamoyilining mohiyatini keng jamoatchilikka yetkazish;

tumandagi tegishli idora va tashkilotlarni jalb etgan holda, tuman mudofaa bo‘limiga bayram tadbirlarini yuqori saviyada tashkil etish va o‘tkazishga amaliy yordam ko‘rsatish vazifalari yuklatilsin.

5. Tuman hokimining o‘rinbosari J.Raximov, Yoshlar ishlari tuman bo‘limi (M.Mamasobirov), Respublika “Ma‘naviyat va ma‘rifat markazi” tuman bo‘linmasi, tuman Mudofaa ishlari bo‘limi (R.Salimgariyev) yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, fuqarolik jamiyatini shakllantirish va rivojlantirishda O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarining o‘rnini hamda Vatan himoyachilari kuni bayramining fuqarolarimiz hayotida tutgan ahamiyatini tumanda yashovchi har bir insonga va har bir oilaga yetkazsinlar.

6. Tuman hokimining o‘rinbosari (J.Raximov), Tuman Mudofaa ishlari bo‘limi (R.Salimgariyev) tumandagi manfaatdor idora, muassasa va tashkilotlar bilan hamkorlikda:

Vatan himoyachilari kuniga tayyorgarlik ko‘rish va o‘tkazish bo‘yicha tuman tashkiliy qo‘mitasini tuzsinlar va shaxsan rahbarlikni ta‘minlasinlar, Dasturda ko‘zda tutilgan tadbirlarni joylarda amalga oshirsinlar;

ko‘chalar, maydonlar va tantanali tadbirlar o‘tkaziladigan joylarning O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari tashkil etilganligining 33 yilligi hamda Vatan himoyachilari kuniga bag‘ishlangan plakat va stendlar bilan bayramona bezatilishi, shuningdek, madaniyat va istirohat bog‘larida mavzuga doir ko‘rgazma va ekspozitsiyalar tayyorlanishini tashkillashtirsinlar;

tuman miqyosida O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari tashkil etilganligining 33 yilligi hamda Vatan himoyachilari kuniga bag‘ishlangan tantanali yig‘ilishlar, konsert dasturlari va boshqa bayram tadbirlariga aholining barcha qatlamlari vakillarini, jumladan yoshlar, harbiy xizmatchilar va ularning oila a‘zolari, shuningdek, Vatan himoyasi yo‘lida jon fido etgan yurtdoshlarimiz oila a‘zolarini ishtirok etishini ta‘minlasinlar;

hududlarning o‘ziga xos xususiyatlari, urf-odatlari, tarixi va madaniyatini inobatga olgan holda armiya va xalq yakdilligining yanada mustahkamlanishiga qaratilgan harbiy xizmatchilar bilan aholi o‘rtasida turli sport musobaqalari, ijodiy tanlovlar va muzeylarga ekskursiyalarning o‘tkazilishini tashkillashtirsinlar;

barcha mahallalarda, ta‘lim va mehnat jamoalarida va muassasalarda so‘nggi yillarda Qurolli Kuchlarning harbiy-jangovar qudratini oshirish hamda ma‘naviy salohiyatini yuksaltirish bo‘yicha amalga oshirilgan keng ko‘lamli islohotlar Yangi O‘zbekistonni barpo etishda tinchlik va osoyishtalikning ahamiyatini aniq misollar orqali yetkazishga qaratilgan ma‘rifiy uchrashuvlar hamda davra suhbatlarini o‘tkazsin;

Vatan himoyasi va el-yurt tinchligi yo‘lida halok bo‘lgan harbiy xizmatchilar va xodimlarning oila a‘zolari, xizmat burchini bajarish chog‘ida nogiron bo‘lib qolgan harbiylar, e‘tibor hamda ko‘makka muhtoj Ikkinchi jahon urushi qatnashchilari va faxriylari, shuningdek, Qurolli Kuchlar faxriylariga moddiy hamda ma‘naviy yordam berish bilan bog‘liq xayriya tadbirlarini o‘tkazsinlar.

7. Tuman hokimining o‘rinbosari J.Raximov tuman Madaniyat bo‘limi (R.Xoliqova), Respublika “Ma‘naviyat va ma‘rifat markazi” tuman bo‘linmasi, tuman Mudofaa ishlari bo‘limi (R.Salimgariyev) bilan birgalikda:

O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari tashkil topganligining 33 yilligi va Vatan himoyachilari kuni bayramiga bag‘ishlangan bayram konserti dasturini tayyorlash, tantanali marosim o‘tkaziladigan majmualarning ichki va tashqi qismini bayramona bezatilishini ta‘minlasinlar;

buyuk sarkarda ajdodlarimizning yuksak darajadagi vatanparvarligi, sadoqati va fidoyiligi, shuningdek, turli ixtisosliklardagi harbiy xizmatchilar hamda qahramonlik ko‘rsatgan zamondoshlarimizning obrazlarini ochib beradigan ruhlantiruvchi she‘r va qo‘shiqlar, teatr, tasviriy san‘at asarlarini tayyorlash va namoyish etish ishlarini jadallashtirsinlar.

8. Tuman Ichki ishlar bo‘limi (D.karimov), tuman Qo‘riqlash bo‘limi (B.Abdullayev) bilan birgalikda bayram tadbirlari o‘tkaziladigan joylarda jamoat tartibi va xavfsizligini ta‘minlasinlar.

9. Tuman hokimligining “Mingbuloq” gazetasi (Q.Akbarov) O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari tashkil topganligining 33 yilligi va Vatan himoyachilari kuni bayramiga bag‘ishlangan tadbirlarni ommaviy axborot vositalarida keng yoritish, Qurolli Kuchlarni isloh qilish va rivojlantirish mobaynida qo‘lga kiritilgan yutuqlar, shuningdek, harbiy xizmat nufuzini oshirishga qaratilgan harbiy xizmatchilar va ularning oila-a‘zolarini ijtimoiy muhofaza qilish masalalariga bag‘ishlangan maqola va ocherklar berilishini tashkil etish tavsiya etilsin.

10. Tuman Iqtisodiyot va moliya bo‘limi (Z.Jurabayev) tadbirlarni o‘tkazish bilan bog‘liq mablag‘larni belgilangan tartibda ajratish bo‘yicha tuman hokimligiga taklif kiritib borsin.

11. Ushbu qaror ijrosini nazorat qilishni o‘z zimnamda qoldiraman.

Tuman hokimi



A.Mansurov

Mingbuloq tuman hokimining
2024-yil 19-dekabrda
733-6-81-Q/24-son qaroriga
1-ilova

**O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari tashkil topganligining 33 yilligi hamda Vatan himoyachilari kuni bayramiga tayyorgarlik ko‘rish va uni yuqori saviyada o‘tkazish yuzasidan tadbirlar
DASTURI**

T/r	Tadbirlarning nomlanishi	Ijro etish muddatlari	Mas’ul ijrochilar
I. Tashkiliy tadbirlar			
1.	Tumanda O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarining 33 yilligi hamda Vatan himoyachilari kunini nishonlashga tayyorgarlik ko‘rish va o‘tkazish bo‘yicha tashkiliy qo‘mita tuzish.	2024-yil 18-dekabr	Tuman hokimligi, tuman Mudofaa ishlari bo‘limi, tuman Ichki ishlar bo‘limi, tuman Favqulodda vaziyatlar bo‘limi, tumandagi manfaatdor tashkilot, idora hamda muassasalar bilan birgalikda.
2.	Ma’naviy-ma’rifiy va madaniy tadbirlarni o‘tkazish uchun taniqli fan arboblari, ijodkor ziyolilar, madaniyat, san’at va sport vakillaridan iborat targ‘ibot-tashviqot va ijodiy guruhlarni tashkil etish.	2024-yil 20-dekabr	Respublika “Ma’naviyat va ma’rifat markazi” tuman bo‘linmasi, Yoshlar ishlari tuman bo‘limi, tuman Madaniyat bo‘limi.
3.	Ko‘chalar, maydonlar va tantanali tadbirlar o‘tkaziladigan joylarni O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari tashkil etilganligining 33 yilligi hamda Vatan himoyachilari kuniga bag‘ishlangan plakat va stendlar bilan bayramona bezatish, shuningdek, madaniyat va istirohat bog‘larida “Yangi O‘zbekiston armiyasi – mamlakat tayanchi, xalqimiz faxri!” umumiy shior ostida mavzuga doir targ‘ibot-tashviqot vositalari bilan bezash, ko‘rgazma va ekspozitsiyalar tayyorlash, ko‘chalardagi LED ekranlarda shu mavzudagi ijtimoiy rolklar namoyishini tashkil etish.	2024-yil 23- dekabrdan 2025-yil 20- yanvargacha	Tuman hokimligi, Respublika “Ma’naviyat va ma’rifat markazi” tuman bo‘linmasi.
4.	Tuman madaniyat saroyi va madaniyat markazlarining foyesi, konsert zali, sahnalar hamda ularga tutash hududlarni bayramona bezash, shuningdek, taniqli estrada, teatr, kino artistlari, ijodiy jamoalar ishtirokida bayram konsert dasturlarini tayyorlash.	Tantanali tadbirlarni o‘tkazish davrida	Tuman hokimligi, tuman Madaniyat bo‘limi, Respublika “Ma’naviyat va ma’rifat markazi” tuman bo‘linmasi,

			tumandagi manfaatdor tashkilot, idora hamda muassasalar bilan birgalikda.
5.	<p>O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari tashkil topganligining 33 yilligi va Vatan himoyachilari kuniga bag‘ishlangan tantanali tadbir va bayram dasturlarini o‘tkazish;</p> <p>Tantanali tadbir o‘tkaziladigan majmua binosi, zali, sahnasi va hududini bayramga bag‘ishlangan tantanali tadbirni o‘tkazishga tayyorlash.</p>	2025-yil 12-yanvar	Tuman Madaniyat bo‘limi, Respublika “Ma’naviyat va ma’rifat markazi” tuman bo‘linmasi, tumandagi manfaatdor tashkilot, idora hamda muassasalar bilan birgalikda.
6.	<p>O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari tashkil topganligining 33 yilligi va Vatan himoyachilari kuni munosabati bilan faollar, mehnat faxriylari, harbiy qismlarning harbiy xizmatchilari, aloqador tashkilot, idoralar ishtirokida tantanali yig‘ilish o‘tkazish hamda Davlat mukofoti bilan taqdirlangan va jangovar xizmat faoliyatida yuqori natijalarga erishgan harbiy xizmatchilarni qutlash va rag‘batlantirish, taniqli san’at va madaniyat arboblari, badiiy jamoalar ishtirokida bayram konserti dasturini namoyish etish va o‘tkazish.</p>	Alohida reja Bo‘yicha	Tuman hokimligi, tuman Madaniyat bo‘limi, tuman Mudofaa ishlari bo‘limi, tuman Ichki ishlar bo‘limi, tuman Favqulodda vaziyatlar bo‘limi.
7.	<p>“Xotira majmuasi”da tuman hokimligi, huquqni muhofaza qiluvchi idoralar, harbiy qismlari va keng jamoatchilik ishtirokida tantanali gulchambarlar qo‘yish marosimini o‘tkazish</p>	Alohida reja bo‘yicha	Tuman hokimligi, tuman Mudofaa ishlari bo‘limi, tuman Ichki ishlar bo‘limi, tuman Favqulodda vaziyatlar bo‘limi tumandagi manfaatdor tashkilot, idora hamda muassasalar bilan birgalikda.
8.	<p>Harbiy xizmatchilar va o‘quvchi yoshlardan tashkil topgan targ‘ibot guruhlarini tashkil etish va uyushmagan hamda profilaktika hisobida turuvchi yoshlarda Vatanimiz taqdiri va kelajagi uchun dahldorlik, mas’uliyat, sadoqat va vatanparvarlik hissini oshirish, yot g‘oyalarga qarshi mafkuraviy immunitetni kuchaytirishga qaratilgan tadbirlarni tashkil etish va o‘tkazish.</p>	2025 yil 10-12 yanvar	Tuman hokimligi, Respublika “Ma’naviyat va ma’rifat markazi” tuman bo‘linmasi, tuman Mudofaa ishlari bo‘limi, tuman Ichki ishlar bo‘limi, tuman Favqulodda vaziyatlar bo‘limi.
9.	<p>“Yangi O‘zbekiston armiyasi – mamlakat tayanchi, xalqimiz faxri!”mavzusidagi</p>	2024-yil 20-	Tuman Madaniyat bo‘limi,

	bannerlarni tayyorlash va joylashtirish, ijtimoiy tarmoqlarida maxsus guruhlar tashkil etish hamda ularda harbiy-vatanparvarlik mavzusidagi maqola va media materiallarni joylashtirish.	dekabrdan 2025-yil 20- yanvargacha	tuman hokimligining “Mingbuloq” gazetasi, tuman Mudofaa ishlari bo‘limi. tumandagi manfaatdor tashkilot, idora hamda muassasalar bilan birgalikda.
10.	Qurolli Kuchlarda amalga oshirilayotgan islohotlarni va erishilgan yutuqlarni, harbiy xizmatchilarning ijtimoiy himoyasi, jangovar va ma’naviy-ma’rifiy tayyorgarlikni yaxshilash, milliy armiyamizning nufuzini oshirishga yo‘naltirilgan boshqa qator sohalarni yorituvchi videoroliklar va maqolalar turkumini yaratish hamda katta o‘lchamli ekranlarda (ko‘cha pannolarida) videoroliklar namoyish etish.	2025-yil 20-yanvarga qadar	Tuman hokimligi, Respublika “Ma’naviyat va ma’rifat markazi” tuman bo‘linmasi, tuman Ichki ishlar bo‘limi, tuman Favqulodda vaziyatlar bo‘limi, tuman hokimligining “Mingbuloq” gazetasi, tuman Mudofaa ishlari bo‘limi, tumandagi manfaatdor tashkilot, idora hamda muassasalar bilan birgalikda.
II. Aholi o‘rtasida olib boriladigan harbiy-vatanparvarlik va ma’naviy-ma’rifiy, madaniy hamda sport tadbirlari			
11.	O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari tashkil topganligining 33 yilligi va Vatan himoyachilari kuni munosabati bilan tadbirlar oyligini tashkil etish.	2024-yil 20- dekabrdan 2025-yil 20-yanvarga qadar	Yoshlar ishlari tuman bo‘limi, tuman Mudofaa ishlari bo‘limi, tuman Ichki ishlar bo‘limi, tuman Favqulodda vaziyatlar bo‘limi, tuman Qo‘riqlash bo‘limi.
12.	Yoshlarni harbiy kasbga yo‘naltirish va ularni O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarining shakllanish va rivojlanish tarixi bilan tanishtirish maqsadida harbiy qism va muassasalarda o‘quvchi-yoshlar uchun ochiq eshiklar kunlarini tashkil etish.	2024- dekabr 2025-yil davomida	Tuman Mudofaa ishlari bo‘limi, tuman Ichki ishlar bo‘limi, tuman Favqulodda vaziyatlar bo‘limi, tuman Qo‘riqlash bo‘limi, tuman Maktabgacha va maktab ta’limi bo‘limi, Yoshlar ishlari tuman bo‘limi.
13.	“Milliy armiyamiz mustaqilligimizning kafolatidir!” mavzusida umumta’lim maktablarida	2025-yil 15-yanvarga	Tuman Mudofaa ishlari bo‘limi,

	“Vatanparvarlik darslari”ni o‘tkazish.	qadar	tuman Ichki ishlar bo‘limi, tuman Qo‘riqlash bo‘limi, tuman maktabgacha va maktab ta’limi bo‘limi, Yoshlar ishlari tuman bo‘limi.
14.	Tarixchi olimlar, ma’naviyatchilar hamda davlat va jamoat tashkilotlari vakillari bilan birgalikda davlat umumta’lim maktablaridagi “Vatan tayanchi” otryadlarini tarixiy-madaniy maskanlar va diqqatga sazovor joylarga tashriflarini uyushtirish, o‘quvchi yoshlarga tarixiy ma’lumotlarni yetkazish.	2024-2025-yillar davomida	Tuman Mudofaa ishlari bo‘limi, tuman Ichki ishlar bo‘limi, tuman Favqulodda vaziyatlar bo‘limi, tuman Qo‘riqlash bo‘limi, tuman Maktabgacha va maktab ta’limi bo‘limi, Yoshlar ishlari tuman bo‘limi.
15.	Uyushmagan yoshlarning qiziqishlarini o‘rganish hamda ularni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash ishlarini tashkil etish maqsadida bandlik yarmarkalarini o‘tkazish.	2025-yil davomida	Yoshlar ishlari tuman bo‘limi, tuman Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik bo‘limi.
16.	Keng jamoatchilik, ayniqsa, yoshlar bilan fan, ta’lim, madaniyat, san’at va ijtimoiy soha namoyandalari ishtirokida “Vatanga xizmat - oliy fazilat” mavzusida seminarlar tashkil etish.	2024 yil 20-dekabr 2025-yil 15-yanvarga qadar	Respublika “Ma’naviyat va ma’rifat markazi” tuman bo‘limi, tuman Qo‘riqlash bo‘limi, tuman Maktabgacha va maktab ta’limi bo‘limi, Yoshlar ishlari tuman bo‘limi
17.	O‘zbekiston Respublikasining mustaqilligini himoya qilish va xizmat majburiyatini bajarish vaqtida halok bo‘lgan harbiy xizmatchilarning ko‘rsatgan qahramonliklarini keng targ‘ib etish maqsadida ular istiqomat qilgan mahallalarda, muassasalarda, mehnat jamoalarida taniqli adib va olimlar ishtirokida “Qahramonlar nomi barhayot!” mavzusida davra suhbatlari va ijodiy uchrashuvlarni tashkil etish.	2024-yil 20-dekabr 2025-yil 15-yanvargacha	Respublika “Ma’naviyat va ma’rifat markazi” tuman bo‘limi, tuman Qo‘riqlash bo‘limi, tuman Maktabgacha va maktab ta’limi bo‘limi, Yoshlar ishlari tuman bo‘limi
III. Madaniy – ma’rifiy va sport yo‘nalishidagi tadbirlar.			
18.	Aholi va yoshlar o‘rtasida sportning ommaviy-texnik va amaliy turlari bo‘yicha “Xalq va armiya – bir tanu bir jondir” shiori ostida musobaqalarni tashkil etish va o‘tkazish.	2024-dekabr 2025-yil davomida	Tuman Ichki ishlar bo‘limi, tuman Favqulodda vaziyatlar bo‘limi, tuman Qo‘riqlash bo‘limi, tuman sport

			maktabi, “Vatanparvar” tashkiloti tuman kengashi.
19.	Ta’lim muassasalari o’quvchi va talabalarining tuman hududida joylashgan muzeylarga ekskursiyalarini hamda viloyat musiqali drama teatrining vatanparvarlik mavzusidagi teatrlashtirilgan postanovkalari va spektakllariga tashriflarini uyushtirish.	Doimiy	Tuman maktabgacha va maktab ta’limi bo’limi, Yoshlar ishlari tuman bo’limi.
20.	Keng jamoatchilik va o’quvchi yoshlar qalbida harbiy kasbga bo’lgan g’urur va iftixor tuyg’ularini yanada mustahkamlash maqsadida eng ilg’or harbiy xizmatchilar bilan uchrashuv va davra suhbatlarini tashkil etish.	Doimiy	Tuman Maktabgacha va maktab ta’limi bo’limi, Yoshlar ishlari tuman bo’limi, tuman Mudofaa ishlari bo’limi.
21.	Tumanda aholining keng qatlamlari, ayniqsa, yoshlar ishtirokida “Vatan manzumi” nomli adabiy ma’rifiy kechalar tashkil etish.	2025-yil yanvar-mart	Tuman Madaniyat bo’limi, “Respublika Ma’naviyat va ma’rifat markazi” tuman bo’linmasi, Yoshlar ishlari tuman bo’limi.
IV. Harbiy xizmatchilar va ularning oila a’zolarini ijtimoiy-huquqiy himoyalashga qaratilgan tadbirlar			
22.	Yangi yil bayramini nishonlash munosabati bilan tumanning barcha hududlarida tashkil etiladigan tadbirlarda xizmat vazifalarini bajarish vaqtida halok bo’lgan harbiy xizmatchilar farzandlarining ishtirokini tashkillashtirish.	2024-yil dekabr 2025-yil yanvar	Tuman hokimligi, tuman Maktabgacha va maktab ta’limi bo’limi, tuman Mudofaa ishlari bo’limi, tuman Ichki ishlar bo’limi, tuman Favqulodda vaziyatlar bo’limi, Yoshlar ishlari tuman bo’limi.
23.	Belgilangan tartibda mehnat fronti faxriylari, mustaqillik yillarida xizmat burchini bajarish chog’ida sog’lig’ini yo’qotgan harbiy xizmatchilar va huquqni muhofaza qilish organlari xodimlarini ro’yxatni shakllantirish. Ularni sog’lomlashtirish uchun maqsadli yordam ko’rsatish, ularga protezlar, nogironlar aravachalari va boshqa zarur tibbiyot asbob va anjomlari ajratilishini, ularning oila a’zolarini imtiyozli ravishda tibbiyot muassasalarida davolanishi va dori vositalari bepul yetkazib berilishini ta’minlash	2024-yil dekabr 2025- yil yanvar	Tuman tibbiyot birlashmasi, “Inson” ijtimoiy xizmatlari tuman bo’limi.

Mingbuloq tuman hokimining
2024-yil 19-dekabrda
733-6-81-Q/24-son qaroriga
2-ilova

O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari tashkil topganligining 33 yilligi va Vatan himoyachilari kuni bayramiga bag‘ishlangan tadbirlarni tashkil etish va o‘tkazish bo‘yicha tuman tashkiliy qo‘mitasi tarkibi

TARKIBI

Tashkiliy qo‘mita rahbari:		
A.Mansurov	-	Tuman hokimi
Tashkiliy qo‘mita rahbarining o‘rinbosarlari:		
J.Raximov	-	Tuman hokimining o‘rinbosari
Tashkiliy qo‘mita a‘zolari:		
Sh.Turg‘unboyeva	-	Tuman hokimining maslahatchisi
R.Salimgariyev	-	Tuman Mudofaa ishlari bo‘limi boshlig‘i
(lavozimiga ko‘ra)	-	O‘zbekiston Respublikasi Davlat xavfsizlik xizmati tuman bo‘limi boshlig‘ining o‘rinbosari
D.Karimov	-	Tuman ichki ishlar bo‘limi boshlig‘i
B.Abdullayev	-	Tuman Qo‘riqlash bo‘limi boshlig‘i
D.Mamajonov	-	Favqulodda vaziyat tuman bo‘limi boshlig‘i
M.Mamasobirov	-	Yoshlar ishlari tuman bo‘limi boshlig‘i
O.Xujayev	-	Tuman Maktabgacha va maktab ta‘limi bo‘limi boshlig‘i
R.Xoliqova	-	Tuman Madaniyat bo‘limi boshlig‘i boshlig‘i
M.Abduqodirov	-	Tuman Sport maktabi direktori
D.Jo‘raboyeva	-	Respublika “Ma‘naviyat va ma‘rifat markazi” tuman bo‘linmasi boshlig‘i
Z.Ahmadjonov	-	Tuman Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik bo‘limi boshlig‘i
M.Saidmurodova	-	“Nuroni” jamg‘armasi tuman bo‘limi raisi
O.Qo‘ldoshev	-	Tuman Tibbiyot birlashmasi
Sh.Qodirov	-	Mudofaaga ko‘maklashuvchi “Vatanparvar” tashkiloti tuman Kengashi raisi
D.Umarov	-	Tuman hokimligining bosh mutaxasisi

Izoh. Tashkiliy qo‘mita a‘zolari boshqa ishga o‘tganida qo‘mita tarkibiga tegishli lavozimlarga yangi tayinlangan yoki mazkur lavozim vazifalarini bajarilishi yuklatilgan shaxslar kiritiladi.